

Toshkent shahridagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 90 448 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,0 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12 890 ta (14,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 86 490 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,6 % savdo, 17,5 % sanoat, 8,0 % qurilish, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari hamda 31,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11 984 ta), Chilonzor (11 611 ta), Mirzo Ulug'bek (10 024 ta), Olmazor (9 251 ta), Shayxontohur (8 905 ta), Uchtepa (8 361 ta), Yakkasaroy (7 931 ta) va Mirobod tumanlari (7 874 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6 940 ta), Sirg'ali (5 436 ta) hamda Bektemir (2 131 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 86 490 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12 890 ta (14,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11 210 ta), Chilonzor (11 138 ta), Mirzo Ulug'bek (9 735 ta), Olmazor (9 046 ta), Shayxontohur (8 396 ta), Uchtepa (8 025 ta), Yakkasaroy (7 743 ta) va Mirobod tumanlari (7 446 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6 429 ta), Sirg'ali (5 254 ta) hamda Bektemir (2 068 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-fevral oylarida 3 490 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 597 birlikka kamdir.

2016–2020-yillarning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (459 ta), Chilonzor (448 ta), Yunusobod (423 ta), Mirzo Ulug'bek (370 ta), Shayxontohur (367 ta), Olmazor (322 ta) va Yakkasaroy (260 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirg'ali (254 ta), Mirobod (238 ta), Yashnobod (235 ta) hamda Bektemir (114 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari eng ko‘p savdo (1 563 ta), sanoat (393 ta), qurilish (298 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (255 ta) va axborot va aloqa (135 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kamida esa tashish va saqlash (112 ta), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (54 ta) hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari (30 ta) faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.


Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra 81 005 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar – 63 344 ta, xususiy korxonalar – 13 241 ta, oilaviy korxonalar – 3 072 ta, unitar korxonalar – 612 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 228 ta va boshqalar 508 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarining soni, birlikda

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 63 344 tani tashkil etib, ulardan 60 773 tasi yoki 95,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 10 256 taga yoki 16,1% ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-fevral oylarida 2 667 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 492 birlikka kamdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar-fevral oylari
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	63 344	60 773	2 667
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	683	642	21
Sanoat	11 942	11 500	324
Qurilish	6 395	6 150	278
Savdo	17 498	16 815	1 122
Tashish va saqlash	3 133	3 027	102
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 698	4 447	187
Axborot va aloqa	2 762	2 629	112
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 112	1 086	47
Boshqa turlari	15 121	14 477	474

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo – 27,7 %, sanoat – 18,9 %, qurilish – 10,1% hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,3 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa tashish va saqlash faoliyat turlarida – 5,0 %, axborot va aloqa – 4,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,8 % hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida – 1,1% ga to'g'ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimoti, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



■ mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ■ xususiy korxonalar
■ oilaviy korxonalar ■ boshqalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 76 663 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16,1 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Toshkent shahar	76 663	7 448	69 215
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	7 368	431	6 937
Bektemir	1 904	254	1 650
Yunusobod	9 845	864	8 981
Mirzo Ulug'bek	8 472	873	7 599
Mirobod	6 311	783	5 528
Shayhontohur	7 246	678	6 568
Olmazor	8 270	727	7 543
Sirg'ali	4 765	402	4 363
Yakkasaroy	6 989	847	6 142
Yashnobod	5 651	687	4 964
Chilonzor	9 842	902	8 940

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonida tumanlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Eng katta ulush

Eng kichik ulush



Yunusobod tumani
12,8%



Yakkasaroy tumani
9,1%



Chilonzor tumani
12,8 %



Mirobod tumani
8,2 %



Mirzo Ulug'bek tumani
11,1 %



Yashnobod tumani
7,4 %




Olmazor tumani
10,8 %



Sirg'ali tumani
6,2 %



Uchtepa tumani
9,6 %



Bektemir tumani
2,5 %




Shayhontohur tumani
9,5 %

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 9 845 tasi (12,8 %) Yunusobod, 9 842 tasi (12,8 %) Chilonzor, 8 472 tasi (11,1 %) Mirzo Ulug‘bek hamda 8 270 tasi (10,8 %) Olmazor tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 76 663 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 22 017 ta (28,7 %) – savdo, 15 074 ta (19,7 %) – sanoat, 6 929 ta (9,0 %) – qurilish, 6 116 ta (8,0 %) – yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 415 ta (4,5 %) – tashish va saqlash bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 224 ta (4,2 %) – axborot va aloqa sohasi, 1 332 ta (1,7 %) – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 815 ta (1,1 %) – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, shuningdek 17 741 tasi (23,1 %) – boshqa faoliyat turlari hissaloriga to‘g‘ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



2020-yil yanvar-fevral oylarida 3 365 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 589 taga birlikka kamdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari Uchtepa

(449 ta), Chilonzor (435 ta), Yunusobod (405 ta), Mirzo Ulug‘bek (360 ta), Shayxontohur (346 ta), Olmazor (308 ta) va Yakkasaroy (254 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Sirg‘ali (244 ta), Yashnobod (225 ta), Mirobod (225 ta) hamda Bektemir (114 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko‘p soni savdoda – 1 561 ta, sanoatda – 393 ta, qurilishda – 297 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 251 ta, axborot va aloqada – 134 ta hamda tashish va saqlashda – 111 ta tashkil etilgan. Eng kami esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda – 53 ta hamda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida – 30 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra 3 079 tani tashkil etib, ulardan 2 889 tasi yoki 93,8 % faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 20,9 %ga oshganligini ta’kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumot (birlikda)

	01.03.2020 y.		2020 yil yanvar-fevral oylari
	Ro‘yxatdan o‘tgan	Faoliyat ko‘rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Toshkent shahri	3 072	2 889	122
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	467	443	8
Bektemir	90	87	9
Yunusobod	363	337	18
Mirzo Ulug‘bek	226	216	8
Mirobod	173	152	2
Shayxontohur	418	384	14
Olmazor	436	423	23
Sirg‘ali	187	179	9
Yakkasaroy	155	153	11
Yashnobod	266	238	12
Chilonzor	291	277	8

Oilaviy korxonalarining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 40,3 % ya'ni 1 165 tasi sanoat, 20,0 % – 579 tasi savdo, 18,6 % – 537 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,7 % – 77 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,7 % – 48 tasi axborot va aloqa, 1,5 % – 42 tasi qurilish, 1,0 % – 30 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % ya'ni 28 tasi tashish va saqlash hamda 13,2 % – 383 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, % da




Agarda 2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko‘rsak, eng ko‘pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Toshkent shahri	122	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	8	6,6
Bektemir	9	7,4
Yunusobod	18	14,7
Mirzo Ulug‘bek	8	6,6
Mirobod	2	1,6
Shayxontohur	14	11,5
Olmazor	23	18,8
Sirg‘ali	9	7,4
Yakkasaroy	11	9,0
Yashnobod	12	9,8
Chilonzor	8	6,6

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Olmazor (23 ta), Yunusobod (18 ta), Shayxontohur (14 ta), Yashnobod (12 ta) va Yakkasaroy (11 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Sirg‘ali (9 ta), Bektemir (9 ta), Uchtepa (8 ta), Mirzo Ulug‘bek (8 ta), Chilonzor (8 ta) hamda Mirobod (2 ta) tumanlarida ularning tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar –fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,8 % – 33 tasi savdo, 23,8 % – 29 tasi sanoat, 22,1 % – 27 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari, 4,1% – 5 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, 1,6 % – 2 tasi axborot va aloqa, 0,8 % – 1 tasi tashish va saqlash, 0,8 % – 1 tasi qurilish, 0,8 % – 1 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 8,2 % – 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6 599 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 502 taga yoki 22,7 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 134 ta (jamidagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 022 ta (15,5 %), Yunusobod – 883 ta (13,4 %), Mirzo Ulug‘bek – 807 ta (12,2 %), Chilonzor – 741 ta (11,2 %), Yashnobod – 527 ta (8,0 %) va Shayxontohur – 476 ta (7,2 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor – 356 ta (5,4 %), Sirg‘ali – 272 ta (4,1%), Uchtepa – 226 ta (3,4 %) hamda Bektemir – 155 ta (2,4 %) tumanlarida tashkil etgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining o‘shish dinamikasi, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining 2 774 tasi qo‘shma, 3 825 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.




Qo‘shma korxonalar




Jami




Xorijiy korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Toshkent shahri	6 599	2 774	3 825
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	226	84	142
Bektemir	155	86	69
Yunusobod	883	388	495
Mirzo Ulug'bek	807	364	443
Mirobod	1 134	348	786
Shayxontohur	476	233	243
Olmazor	356	189	167
Sirg'ali	272	146	126
Yakkasaroy	1 022	390	632
Yashnobod	527	250	277
Chilonzor	741	296	445

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 304 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga kam.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod (63 ta), Mirzo Ulug'bek (51 ta), Yakkasaroy (44 ta), Yunusobod (34 ta), Chilonzor (30 ta) va Shayxontohur (19 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor (17 ta), Sirg'ali (16 ta), Yashnobod (16 ta), Uchtepa (12 ta) va Bektemir (2 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Rossiya Federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 58 ta, Turkiya Respublikasi – 45 ta, Qozog'iston Respublikasi – 39 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 37 ta, Koreya Respublikasi – 23 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 102 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2020-yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi,

Hindiston Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo‘shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 123 tasi savdo, 42 tasi sanoat, 28 tasi qurilish va 111 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda



MDH davlatlari ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo‘shma korxonona	Xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	58	16	42
Qozog‘iston Respublikasi	39	13	26
Ozarbayjon Respublikasi	10	2	8
Tojikiston Respublikasi	4	-	4
Belorussiya Respublikasi	3	2	1
Qirg‘iziston Respublikasi	2	-	2
Armaniston Respublikasi	1	1	-

MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi – 19,0 %, Qozog‘iston Respublikasi – 12,8 % va Ozarbayjon Respublikasi – 3,3 % ga to‘g‘ri kelmoqda.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Ye.V.Yegorova
tel.: 71 230-88-31